

## TO‘GARAK - ISTERDODGA QANOT

*Nosirova To’xtaxon Abdumannopovna*

*Andijon viloyati Izboskan tumani 45-umumta’lim maktabi*

*Texnologiya fani o’qituvchisi*

*Iste’dodsiz farzand bo’lmaydi,  
e’tiborsiz ota-onalar bor...*

Har bir o’quvchining ichida o’ziga xos iste’dod yashirin.Uni yuzaga chiqarish ,rivojlantirish ,qobilyatga aylantirish biz pedagoglarning berayotgan ta’limi, hamda ota-onalarning farzandiga berayotgan e’tiboriga daldasiga bog’liq.Bunday e’tiborni yoshlarning kasb tanlash yoshiga yetganida emas ,balki ilk bolaligidan boshlash ayni muddao bo’ladi. Bu esa hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan DAVR TALABIDIR! Har bir yurtning kuchi-ma’naviy va aqliy jihatdan yuksalgan va yuksalayotgan, kelajakka ishonch bilan qaray oladigan, rivojlanish uchun, yurt ravnaqi uchun hissa qo’shishga urinayotgan iste’dodli yoshlar hisoblanadi. Bu shu qadar ulkan kuchki, yurt bu kuchni qanday va qay yo’lga yo’naltirilsa, kelajak xuddi shu yo’l bilan ravnaq topadi. Bir daraxt misolida qaraydigan bo’lsak,biz bugun ekkan daraxt ertaga o’z mevasini beradi.Uni qanday niholdan ekishimiz, qanday parvarish qilishimiz va ertaga qanday meva olishimiz o’zimizga bog’liq. Kerakli natijalarga erishish uchun to’g’ri tanlov, yaxshi parvarish va e’tibor lozim. Yosh avlodga berayotgan bilimimiz vatanimiz kelajagi uchun mustahkam bir poydevor sanaladi.Biz poydevorni qanchalik mustahkam qilsak, u shunchalik chidamli, har qanday vaziyatda qulamaydigan, yillar o’tsa-da o’z haybati ila lol qoldiradigan bir ko’rinish kasb etadi. Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan tuzilayotgan islohotlar, farmon va farmoyishlar ushbu poydevorni yanada mustahkam bo’lishini ta’minlaydi. Jamiyat taraqqiyoti, yurt, millat taqdirida o’sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o’rinda turadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek , „Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga

raxna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifat, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir''. Bugungi kunda Respublikamizda 9900 dan ortiq maktablar faoliyat yuritmoqda va 6 milliondan ortiq o'quvchilar ta'lif olmoqda. Shuni ta'kidlashim joizki, Prezidentimiz ilgari surgan 5 tashabbus har bir ta'lif muassasasiga kirib borgan. Xususan, ta'lif muassasalari o'quvchilarining uchdan bir qismi to'garaklarga jalb qilingan. Jumladan, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan birinchi tashabbus doirasida 700mingdan ortiq o'quvchilar to'garakda ishtirok etishmoqda. Yoshlarning to'garakda ishtirok etishi ularning qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Bugungi kunda yurtimizdagi yosh avlodlarning o'qishdan tashqari bo'sh vaqtini bekor sarflamasligi uchun kasbga yoki hunarga yo'naltirish bo'yicha turli xildagi to'garaklar hamda o'quv kurslari tashkil etilgan. Xususan, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash uchun yaqin yillarda Prezidentimiz tomonidan juda ko'p sharoitlar yaratildi. Va ko'plab ishsiz ayollar, o'smir qizlar ish bilan ta'minlandi. Maktablarda tashkil etilayotgan „Qizlarni hayotga tayyorlash”, „Pazandachilik”, „Mohir qo'llar”kabi togaraklarning o'ziga xos o'rni bor. To'garaklarda bilim, ko'nikma, malaka bilan bir qatorda o'quvchi qizlarni milliy urf odatlarga hurmat, vatanparvarvarlik, samimiylilik, sabr-bardoshlilik sifatlarini shallanishida ushbu to'garaklarni o'rni beqiyos. Qo'shimcha qilib aytganda, jamiyatimizda yoshlarni o'rni juda katta va muhim o'rinni egallaydi. Negaki, kelajagimiz ana shu yoshlarni qo'lida. Shuning uchun ham hozirgi kunda yoshlarni kasbga yo'naltirishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamiz mustaqillika erishgandan buyon davlatimiz xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligidagi alohida e'tibor berib kelmoqda. Hozirgi kunda maktablarda, xususan texnologiya darslari, mashg'ulotlarida, to'garaklarda „ustoz” va „shogird” an'analari tiklanib, davom etmoqda. Kuzatishlarimiz natijasida shular ma'lum bo'ldiki, ko'plab o'quvchilar naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi kabi xalq an'anaviy hunarmandchilihi bilan shug'llanishmoqda. Shuning uchun ular darslarda, amaliy mashg'ulot paytlarida xalqimizning hunarmandlari bilan bog'liq savollar beradilar. Ana

shularni e'tiborga olgan holda matabning texnologik ta'limi to'garagida milliy va amaliy san'at, shuningdek, xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha o'rgatilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sinfdan tashqari sharoitda olib boriladigan to'garaklar yoxud ishlar o'quvchilarning qiziqishi, xohish-istagi va iste'dodlariga ko'ra yo'lga qo'yilsa quyidagilarga erishishimiz shubxasizdir:

- O'quvchilarning axloqiy sifatlari boyiydi, ularning tafakkur darjasini kengayadi, ularda ma'lum bir kasb-hunar asoslarini o'rganishga bo'gan qiziqishini orttiradi;
- O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi yuzaga keladi;
- O'quvchi-yoshlarni dunyoqarashi kengayib, ularda ijodiy mehnat qilish tuyg'usi uyg'onadi;

To'garak mashg'ulotlari turli shakllarda amalga oshirilishi lozim. Bir soz bilan aytganda o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish va kasbga yo'naltirishga asoslangan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha shakllardan foydalanish shubhasiz samarali natijalarga olib keladi.

Oqituvchilar, to'garak rahbarlarining ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va tatbiq qilish doimo pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Shunday ekan yoshlarning qiziqishlari va iste'dodini qo'llab quvvatlaylik!